

SUG'ORILADIGAN YERLARNI QISHLOQ XO'JALIK OBOROTIDAN CHIQUIB KETISH SABABLARI VA ULARNING ILMIIY YECHIMLARI HUSUSIDA

Usmonov Jasur Ziyodullayevich

Kadastr agentligining Qashqadaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i, q.x.f.f.d. (PhD)

Annotasiya. Ushbu maqolada sug'oriladigan yerlarni qishloq xo'jalik oborotidan chiqib ketish sabablari va ularning ilmiy yechimlari hususida so'z yuritilgan.

Kalit so'z: qishloq xo'jaligi yerlari, yer turlari, ekin yerlar, daraxtzorlar, bo'z yerlar.

Yer shari quruqlik maydoni 13,2 mlrd. gektarni tashkil etib, hozirgi kunda uning 12 foizi (1,6 mlrd. ga) qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda foydalaniladi¹. Ularning miqdori va sifati turli-tuman tabiiy hamda antropogen ta'sirlar oqibatida yildan yilga kamayib ketmoqda. Shunday ekan, global oziq-ovqat muammosini hal qilish va qishloq xo'jaligida foydalanish uchun cheklangan yer maydonlarining samaradorligini oshirish kelajakda albatta, intensiv yo'llarni qo'llash va buning uchun faol investisiyalar kiritish, tuproqlar unumdorligini saqlash va oshirish, umuman yerlarning resurs sifatidagi funksiyalarini yanada kuchaytirish imkoniyatlarini yaratadigan tizimini shakllantirish bilan bevosita bog'liqdir. Respublikamizda yer resurslaridan, xususan qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona va samarali foydalanish, yer munosabatlarini tartibga solish, yer tuzish va yer monitoringini to'g'ri tashkil etish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirib borish, shuningdek, yer resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlash, ulardan, ayniqsa, agrar sohada to'g'ri va maqsadli foydalanishni ta'minlaydigan yagona, zamonaviy tizim yaratish va uni doimo takomillashtirib borish iqtisodiyot taraqqiyotini belgilovchi,

¹ FAO. 2011. The state of the world's land and water resources for food and agriculture (SOLAW) – Managing systems at risk. Food and Agriculture Organization of the United Nations, Rome and Earthscan, London.
<https://doi.org/10.4060/cb7654ru>

ayniqsa bugungi iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirish talablari doirasida eng ustuvor ahamiyatli vazifalardan biridir. So'nggi yillarda mamlakatimizda qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha ko'plab ishlar qilindi, xususan qishloq xo'jaligida bozorni keng joriy etish, ishlab chiqaruvchi sub'yektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va sotish, sohaga investisiyalarni jalb etish, resurs tejaydigan texnologiyalarni joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda [53; 35-37-b.]. Aholi tomonidan turmush kechirish uchun va qishloq xo'jaligida foydalanish maqsadlarida yangi yerlarni o'zlashtirish bilan birga yerlarning meliorativ holatini buzilishi, eroziya, qurg'oqchilik, sho'rlanishning kuchayishi va yer osti suvlarining ta'siri, sanoat va transport qurilishlari, foydali qazilmalarning ochiq tarzda o'zlashtirilishi natijasida qishloq xo'jaligi yerlarining oborotidan chiqib ketishi jadallashib bormoqda. Shuning uchun yer fondining, shu jumladan, respublikamiz yer fondining asosiy muammosi-qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni tartibga solishdan iborat bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni yaxshilash uchun birinchidan, meliorativ holati yaxshilanib unumdorlik darajasi saqlangan va ko'tarilgan yerlar holatining yomonlashishiga yo'l qo'ymasdan, uni yanada oshirish, ikkinchidan, meliorativ holati yomon sug'oriladigan yerlar unumdorligini qayta tiklash va oshirish choralarini ko'rish lozim bo'ladi. So'nggi yillarda qishloq xo'jaligi yerlaridan maqsadli va samarali foydalanmaslik, ularni tarmoq ichida va tarmoqlararo taqsimlash va qayta taqsimlashning samarasizligi, yerlarni noqishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun iqtisodiy, texnologik va ekologik asoslanmasdan ajratilishi va eng achinarlisi sug'oriladigan tuproqlar unumdorligining pasayib ketishi holatlari kuzatiladi. «Ayniqsa ... yer maydonlarini optimallashtirishdagi kamchiliklar, ayrim fermer xo'jaliklari yetarlicha aylanma mablag'lar, zarur texnika va boshqa moddiy-texnika resurslariga ega emasliklari qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligiga, shartnoma majburiyatlarini bajarilishiga va fermer xo'jaliklarining rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda»². Shu bois ham yer

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 14 январдаги Вазирлар Маҳкамасининг Мамлакатимизни 2016 йилдаги ижтимоий – иқтисодий ривожлантириш асосий якунлари ва 2017 йилга

resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish mexanizmlarining istiqbolli tarkibiy elementlari va ilg'or texnologiyalarni qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi sube'ktlar manfaatlariga mos holda yaratish va tadbiq etish, turli ob'yektiv yoki sub'yektiv sabablariga ko'ra sug'oriladigan ekin yerlarini qishloq xo'jaligi oborotidan asossiz chiqib ketishiga yo'l qo'ymaslik hamda yuqoridagi kabi oborotdan chiqqan yerlarni qishloq xo'jaligiga qaytarish zaruriyati vujudga kelmoqda. Respublikamizda so'nggi 31 yil ichida qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarni noqishloq xo'jaligi maqsadlari uchun, ajratilishi hamda yaylov yerlarining bir qismini o'rmon fondi yerlari toifasiga o'tkazilishi va boshqa toifa yerlarining oshishi hisobiga qishloq xo'jaligi korxonasi, muassasa va tashkilotlarining yer maydonlari 2021 yil 1 yanvar holatiga 1990 yilga nisbatan 9110,7 ming gektarga kamaygan³. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 2021 yil 1 yanvar holati bo'yicha qishloq xo'jaligi maqsadlariga mo'ljallangan yerlar maydoni 24057,1 ming gektarni, ya'ni respublika umumiy yer maydonining 53,6% ini tashkil etadi⁴. Ushbu maydondan qishloq xo'jaligi yer turlarining maydoni 19450,6 ming gektarni (80,8%), sug'oriladigan yerlar 3893,8 ming gektarni (16,2%), sug'oriladigan ekin yerlarining maydoni 3231,9 ming gektarni (13,4%) ni tashkil etadi. Shuni qayd qilish zarurki, hukumat tomonidan qishloq xo'jaligini rivojlantirish, ularga ajratilgan yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, jumladan yer-agrar islohotlar muvaffaqiyatini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan qishloq xo'jaligi yerlarini, xususan sug'oriladigan ekin yerlarini qishloq xo'jaligi oborotidan chiqishi, ular maydonlarini kamayishi kuzatiladi.

Qishloq xo'jaligi yer maydonlarini kamayishi turli sabablar bilan yuz beradi. Bunday sabablarning asosiylaridan biri, bu turli noqishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yer maydonlarini, jumladan, qishloq xo'jaligi yerlarini ajratishdir. To'g'ri, iqtisodiyot tarmoqlari uchun yer ajratish har qanday jamiyatdagi qonuniy jarayondir, aholi sonini

мўлжалланган иқтисодий дастурининг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган кенгайтирилган мажлисдаги маърузаси // Халқ сўзи газетаси. - Тошкент, 2017 й 16 январь.

³ Ўзбекистон Республикаси Ер фонди / Статистик тўплам. - Тошкент: Давергеодезкадастр, 2021. - 13 б.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Ер ресурсларининг ҳолати бўйича миллий ҳисобот. - Тошкент: Давергеодезкадастр, 2021. - 35 б.

tezkorlik bilan o'sib borishi uni yer maydonlariga bo'lgan talabini oshiradi. Yer ajratish miqdorlari, ularni mamlakat hududida joylashuvi ko'pincha mehnat resurslarini rivojlanish geografiyasi va darajasini belgilaydigan ob'yektiv jarayon sifatida qaraladi. Ammo, bu holatga ikkinchi tomondan nazar solinadigan bo'lsa bunday mas'uliyatli jarayonda ba'zi bir kamchiliklar va xatoliklar mavjudligi namoyon bo'ladi. Jumladan, ba'zi holatlarda noqishloq xo'jaligi maqsadlari uchun asossiz ravishda qishloq xo'jaligining eng qimmatli, sug'oriladigan ekin maydonlari ajratiladi yoki boshqa bir holatlarda ajratilayotgan qishloq xo'jaligi yer maydonlarining miqdorlari to'la asoslanmasdan ortiqcha ajratiladi. Bundan tashqari, yerni umumdavlat, umumxalq mulkchiligi sharoitida bunday qimmatli qishloq xo'jaligi yerlariga bo'lgan munosabat har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Shu sababli ham yer ajratish jarayoniga juda ehtiyotkorlik bilan yondoshish, yerlardan foydalanishni tashkil etishda qishloq xo'jaligining ustuvorligini doimo esda saqlagan holda uni amalga oshirish zarur. Bu qoida birinchi navbatda, sug'oriladigan ekin yerlariga tegishli bo'lib, uning maydonlarini mumkin qadar qishloq xo'jaligi uchun saqlab qolish qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishni ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Ammo, shunga qaramasdan, yillar davomida bunday yerlarni noqishloq xo'jaligi maqsadlari uchun ajratish ishlari amalga oshirib kelingan. Bunday jarayonlar bugungi kunda ham davom etmoqda. Xususan, keyingi yillarda qishloq aholisi turmush farovonligini oshirish maqsadlarida zamonaviy uy-joylar barpo etish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish maqsadlarida, har yili o'rtacha 2,6-2,7 ming gektar ekin yerlarini ajratishga yo'l qo'yilgan. To'g'ri tadbirkorlikni rivojlantirish – bugungi kunning muhim masalalaridan biri, lekin har tomonlama asoslanmagan holda bunday katta maydonlarni qishloq xo'jaligidan chiqib ketishi, bizningcha, unchalik to'g'ri emas. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida ham sug'oriladigan ekin maydonlaridan to'g'ri foydalanmaslik oqibatida ularni boshqa yer turlariga o'tkazilishi, ichki xo'jalik qurilishlariga ajratilishi, sug'orish suvini dalalarga yetib bormasligi, meliorativ tarmoqlarni yaxshi ishlamasligi oqibatida ham sug'oriladigan ekin yerlarining maydonlari kamayib ketmoqda (1-jadval).

1-jadval

Respublika bo'yicha ekin maydonlarining dinamikasi (ming ga)

Yer turi	1990 yil	2001 yil	2011 yil	2021 yil	2021 yilda	
					1991 yilga nisbatan +,-	2001 yilga nisbatan +,-
Jami ekin yerlari shundan:	4176,5	4056,2	4064,7	4022,9	-153,6	-33,3
-sug'oriladigan	3407,3	3309,4	3307,3	3252,1	-155,2	-57,3

1-jadvaldan yaqqol ko'rish mumkinki, keyingi yillar davomida ekin yerlarining, ayniqsa sug'oriladigan ekin maydonlarining kamayishi kuzatiladi. Agarda ushbu davr ichida, ya'ni oxirgi 30 yil davomida ekin maydonlarining kamayishi 153,6 ming gektarni tashkil etgan bo'lsa, shundan 155,2 ming gektarini sug'oriladigan ekin yerlari tashkil etgan. Demak, har yili respublikamiz bo'yicha 5,1 ming gektar ekin yerlari va 5,2 ming gektar sug'oriladigan ekin maydonlarini qisqarishi kuzatiladi. Bu ma'lumotlar qishloq xo'jalik yerlarini, sug'oriladigan ekin yerlarini boshqa maqsadlar uchun ajratilishi bilan bir qatorda boshqa turli sabablar bilan ekin yerlarini kamayib ketayotganligini ham ko'rsatmoqda. Bunday holatni o'rganish shundan dalolat beradiki, ekin maydonlarini, jumladan, sug'oriladigan ekin maydonlarin qisqarib ketishiga bu yerlarda mevali bog'lar va uzumzorlarni yaratish, sug'orish inshootlarini buzilib ketganligi oqibatida yoki yerlarning meliorativ holatini tubdan yomonlashganligi oqibatida ekin yerlarini bo'z yerlar sirasiga o'tkazilganligi ham o'zining ta'sirini o'tkazgan. Buni quyidagi ma'lumotlardan ham aniq ko'rish mumkin (2-jadval).

2-jadval

Respublika bo'yicha ayrim yer turlari maydonlarini o'zgarish dinamikasi* (ming. ga hisobida).

Yer turlari	1990 yil	2001 yil	2011 yil	2021 yil	2021 yilda	
					1990 yilga nisbatan +,-	2001 yilga nisbatan +,-

Ko'p yillik daraxtzorlar	366,8	342,6	356,7	415,2	+48,4	+72,6
– jami	354,5	328,1	341,5	386,5	+32,0	+58,4
-sug'oriladigan						
Bo'z yerlar	62,1	85,6	80,4	83,6	+21,5	-2,0
– jami	25,9	48,9	47,0	48,6	+22,7	-0,3
-sug'oriladigan						

2-jadvalda keltirilganidek, keyingi 30 yil ichida haqiqatan ham ko'p yillik daraxtzorlar, bo'z yerlar maydonlari anchagina ko'payganligini kuzatish mumkin.

Jumladan, 2021 yilga kelib respublika bo'yicha ko'p yillik daraxtzorlar maydonlari 1990 yilga nisbatan 48,4 ming gektarga, sug'oriladigani esa 32,0 ming gektarga oshgan (2-jadval). Ko'p yillik daraxtzorlar maydonlarini oshishining aksariyat qismi ekin yerlari hisobiga ro'y bergan. Bo'z yerlarining maydonlari ham, sug'oriladigan bo'z yerlarining maydonlari ham ushbu davr ichida anchagina oshgan. Bunday oshish ham aynan ekin yerlari va sug'oriladigan ekin yerlari hisobiga yuz bergan. Fikrimizcha, yer resurslaridan oqilona foydalanish uzoq yillar davomida dolzarb masalalardan biri bo'lgan va bugungi kunda ham o'sha dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Bu to'g'rida o'tgan asrda ham, bugungi kunda ham Respublikamiz va xorijiy mamlakatlar olimlar ko'p sonli tadqiqotlar olib borganlar va olib bormoqdalar. Shu sababli ham yana bir karra e'tirof etamizki, holati buzilgan sug'oriladigan ekin yerlarini ma'lum chora-tadbirlarni amalga oshirish evaziga qishloq xo'jaligiga qaytarish hamda ulardan oqilona foydalanishni tashkil etish mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni va siyosiy masalalarni hal qilishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullayev A.X., Inamov B.N. Yaroqsiz holga kelgan ekin yerlarini qayta tiklash masalalari // «O'zbekiston zamini» ilmiy-amaliy va innovatsion jurnali. - Toshkent, 2020. - №1. B. - 18-22.
2. Avezbayev S.A, Organizasiya rasiolnalnogo ispolzovaniya zemelnyx resursov i znachenije zemleustroystva // «O'zbekiston zamini» ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal. - Toshkent: «O'zdavyerloyiha» DILI, 2019. - №2. - B. 15-16.
3. Babajanov A.R., Ro'ziboyev S.B. Qishloq xo'jaligi yerdaridan oqilona foydalanishning huquqiy mexanizmlarini tartibga solish // «Agroiqtisodiyot» ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal. - Toshkent, 2019. - №2. - B. 170-172.
4. Narbayev Sh.K, Ne'matov I.N. Qashqadaryo viloyatining qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish holati va muammolari // «O'zbekiston zamini» ilmiy-amaliy va innovatsion jurnal. - Toshkent: «O'zdavyerloyiha» DILI, 2021. - №3. - B. 25-26.
5. Ruzmetov M.I., Turayev R.A., Abdullayeva M.T., Davronov O.U. Reforma upravleniya selskim xozyaystvom v Respublike Uzbekistana // «Zemlya Belarusi» yejekvartalny nauchno-prakticheskiy jurnal. - Minsk, 2021. - №3. - S. 35-37.